“SALOMATLIKNI SAQLASH O‘Z QO‘LIMIZDA” MAVZUSIDA DAVRA SUHBATI TASHKIL ETILDI

// 12.04.2022
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/salomatlikni-saqlash-uz-qolimizda

“Jahon salomatlik kuni” munosabati bilan “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalari xotin-qizlari uchun 2022-yil 12-aprel kuni “Salomatlikni saqlash o‘z qo‘limizda” mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Videokonferensaloqa shaklida o‘tkazilgan mazkur davra suhbatida Shayxontohur tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi ginekolog-shifokori G.Pirnazarova hamda targ‘ibotchi hamshira N.To‘laganovalar ishtirok etishib, “O‘zkimyosanoat” AJ markaziy apparati, tarmoq korxona va tashkilotlarida mehnat qilayotgan xotin-qizlarning savollariga javob berishdi.

Shuningdek, tadbirda shifokorlar tomonidan ayollar o‘rtasida kasalliklarni erta aniqlash maqsadida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot berilib, sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish tartibiga rioya etish salomatligimizni saqlashning asosiy omili ekanligi ta’kidlab o‘tildi.

“O`zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati